

MODUS VA UNING TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI

Vaxobjon Ibragimov,

katta o'qituvchi,

Nigora Ibragimova,

magistrant, Farg'onan davlat universiteti

Annotatsiya:

Modus atamasi ilk bor mantiqshunoslik fanining tadqiqot ob'ekti sifatida ilm-fan maydoniga kirib kelgan va tabiiyki, uning mazmun-mohiyati ham mantiqiy nuqtai nazardan talqin qilingan. Bugungi kunda esa u ijtimoiy-gumanitar sohaga oid ko'plab fanlar doirasida o'rganilib, mazkur fanlarning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda, turlicha talqin qilinmoqda.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, modus, fonetika, lug'at, o'lchov.

KIRISH

Modus atamasi to'g'risida so'z borganda, dastlab ushbu terminning lug'aviy strukturasiga e'tibor berish zarur. Bu atama asli "lotincha "Modius" so'zidan olingan bo'lib, o'lchov, tur, qoida"[1] degan ma'nolarni anglatadi. Modus atamasining o'lchov, tur, qoida kabi lug'aviy ma'nolar bilan namoyon bo'lishi mazkur hodisa mohiyatini to'g'ri anglash va tushunish uchun yordam beradi. Aatama dastlab mantiqshunoslik fanida hukm shaklining muayyan xususiyatlarini ifodalash uchun qo'llanilgan. Hukm tasdiq yoki inkor, juz'iy tasdiq yoki juz'iy inkor ma'nolariga ega bo'ladi. Bu esa modus uchun modallik asos vazifasini o'tashini bildiradi. Demak, modus mantiqshunoslik fani doirasida nutq orqali fikrning tasdiq yoki inkor ma'nosining namoyon bo'lishidir.

ASOSIY QISM

Fikr va modallik hodisalari bir-biri bilan uzviy bog'liq ekanligini hisobga olgan holda, aytish mumkinki, so'zlovchi nutqi modal ma'no kasb etishi uchun uning ongida nutq predmeti haqida tasavvur mavjud bo'lishi lozim. Tasavvur qanchalik chuqur va teran bo'lsa, modusning ifodalanishi shunchalik faol bo'ladi. Tasavvur shakllanishi barobarida so'zlovchi ongida nutq predmetiga nisbatan aksiologik munosabat vujudga keladi. Bundan ko'rish mumkinki, o'zida so'zlovchining ob'ektiv va sub'ektiv munosabatini aks ettirgan har qanday nutq tarkibida tilning ikki xil: diktal va modal strukturasi namoyon bo'ladi.

Modus atamasi insonning fikrlash, so'zlash hamda tasavvur faoliyati bilan bog'liq ekan, mantiqshunoslik fani bilan bir qatorda san'atshunoslik, adabiyotshunoslik, tilshunoslik va boshqa qator fan sohalarida ham muhim tadqiqot ob'ekti bo'lib namoyon bo'ladi. Modus san'atshunoslik sohasida yaratiladigan asarlarga ham matn mavqeini belgilovchi omillardan sanaladi. Chunki bu asarlarda ham hayotning ma'lum qirrasiga nisbatan fikr ifoda etiladi. Olim ushbu fanlarda vujudga keladigan gumanitar fikrni atrofdagilar fikridan – ularning xohish, istak, tasdiq, inkor shakllaridan tashkil topishi mumkin.

Ayni paytda modusning tasdiqlash, his-hayajon, dalil, taxmin, ishonch, rad etish va payqash kabi kategoriyalarga bo‘linishini inobatga olgan holda, ommaviy gumanitar fikr shakllanishi uchun avval modus, ya’ni alohida shaxslarning sub’ektiv fikrlari va qarashlari mavjud bo‘lishi zarur degan qarashni ilgari surish o‘rinlidir.

Ushbu fikr va qarashlar umumlashganda, yagona ijtimoiy fikr vujudga keladi. Muallifning tashqi olam va insonlarga bo‘lgan sub’ektiv munosabati adabiyotshunoslik fanida ko‘proq badiiylik jihatdan baholanadi va shu sababdan badiiylik modusi nomini oladi.

Adabiyotshunoslikda atama ilk bor kanadalik olim Nortrop Fray tomonidan tatbiq qilingan. Bu o‘rinda atama muallifning asar qahramoniga bo‘lgan bahosini izohlash uchun qo‘llanilgan . E’tibor qiladigan bo‘lsak, modusning adabiyotshunoslikda qo‘llanishida ham asosiy urg‘u fikr ifodasi bilan bog‘lanadi. «Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida esa bu terminning zamonaviy o‘zbek romanlarida badiiylik ko‘rinishlari va qonuniyatlar: kinoyaviylik, tragiklik, satirklik, dramatiklikning namoyon bo‘lish usullari ma’nosida qo‘llanishi ham kuzatiladi. Rus olimi Valeriy Tyupa bu tushunchaga muallifning g‘oyaviy–emotsional bahosi, deb qaraydi.

Vaqt omili va ijtimoiy fikr ta’sirida ba’zan modus o‘zgaruvchan xarakter kasb etadi. Umuman olganda, absolyut modus mavjudligi o‘ta nisbiydir. Chunki inson to tirik ekan, fikrlaydi, fikrlash jarayonida esa unda muntazam yangi fikrlar paydo bo‘ladi.

Modus hodisasining matnga nisbatan qo‘llanilishi va rivoj topishida uning muhim kategoriyalaridan bo‘lgan tahlil va tanqid tushunchalari asos bo‘lgan. O.N.Kopitov o‘zining “Modus na prostranstve teksta” nomli monografiyasida rus adabiyotini tahlil qilar ekan, XVI asrga qadar bo‘lgan barcha matnlar diniy e’tiqodga bag‘ishlanganligini, ayniqsa, o‘rta asrlarda yaratilgan asarlarning aksariyati sakral adabiyot xarakterida ekanligini va ularda modusni topib bo‘lmagligini aytadi.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi: muallif nima uchun sakral adabiyotda modusni topib bo‘lmaydi, degan fikrni bildirgan. Chunki modusning asosida, birinchi navbatda, tanqidiy munosabat, tahlil, baho va subyektiv fikr yotadi. Diniy e’tiqodga yo‘g‘rilgan adabiyot esa bu belgilardan holidir. Demak, “matnga nisbatan ilmiy filologik, tanqidiy va shubha bilan yondashish shakllanguniga qadar hozirgi ma’nodagi modus mavjud bo‘lmagan”.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIK DARAJASI

Bizning fikrimizcha, modus yozuv paydo bo‘lmasdan avval, ya’ni og‘zaki adabiyot shakllana boshlagandan buyon mavjuddir. Bizgacha yetib kelgan qadimgi adabiy yodgorliklarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘zbek xalq qahramonlik eposlari, “Avesto”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari negizida muallifning tabiat hodisalariga, asar qahramonlariga, yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va zulmat kabi hodisalariga bo‘lgan munosabati mavjud. Munosabat aks etgan o‘rinda esa modusning ham vujudga kelishi kuzatiladi. Modus deganda, avvalo, sub’ektiv qarash va munosabat tushuniladi. Lekin boshqa tarafdan qaralsa, ob’ektiv munosabat paydo bo‘lishi uchun avval subyektiv munosabat mavjud bo‘lishi taqozo etiladi. Aniqroq aytganda, bir kishining sub’ektiv fikri ko‘plab insonlarga ta’sir ko‘rsatadi, o‘ziga ergashtiradi va ob’ektiv qarashlarning yuzaga kelishiga turtki bo‘ladi.

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida modallik kategoriyasini to‘laqonli nazariy asoslashga qiziqish kuchaygan. Bu mavzudagi turlicha qarashlar ko‘plab xorijiy va o‘zbek tilshunosligiga oid adabiyotlarda o‘z ifodasini topmoqda.

Tilshunoslikda modallik haqidagi ilk g‘oyalar tilning grammatika sathida ko‘zga tashlanadi. Modallik hodisasini modal so‘zlar, modal fe’llar, otning shakllari va boshqa so‘zlar hamda ularning turli shakllari orqali ifodalanishi, bu masalalar alohida predikativ kategoriya ekanligi haqidagi qarashlar V.V.Vinogradov, R.Ikramova, R.A.Kamildjanova, G.A.Zolotova, A.Nurmonov, Z.Yigitaliyeva larning ishlarida kuzatiladi[2].

Shuningdek, Germaniyaning Y. vann der Auvera va V.A.Plungian kabi olimlari modallikni semantik nuqtai nazardan tahlil qilgan bo‘lsalar, uning matn doirasidagi funktsiyasi, mualliflik modalligi, matnning turli janrlarida modallik ko‘rinishlari kabi masalalari I.Hojaliyev tomonidan tadqiq etilgan[3]. Modallik masalalari lingvokognitiv va lingo-kulturologik planda ham ishlangan bo‘lib, bular M.M.Jo‘rayeva, V.V.Kazakovskaya kabi olimlar ishlarida ko‘zga tashlanadi. Tilshunoslikdan tashqari, modallik mantiq, falsafa va san’at kabi fanlar doirasida ham tadqiq etilgan bo‘lib, unda T.A.Selezneva, A.A.Myodovalar tomonidan lisoniy modallikning shakllanish tarixi, J.A.Yakubov ishlarida esa mazkur hodisaning ifodalanish xususiyatlari o‘rganilgan. N.G.Dmitrieva esa “neomodallik” atamasi ostida modallikning zamonaviy san’atshunoslikdagi ko‘rinishlarini tadqiq qilgan.

Modallik sohasidagi qarashlar turli-tumanligi kuzatilsa-da, biroq ular mohiyatan mazkur kategoriya haqida umumnazariy ma’lumotlar berishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, ularda modallik bilan bog‘liq qarashlarni tartibga solish maqsadida muayyan bir tamoyillar asosida ularni tizimlashtirish va tasnif qilish holatlari ko‘p kuzatiladi. Modallik fanda ilk bor imkoniyat, voqelik va zaruriyat kabi ma’nolarni o‘zida mujassamlangan kategoriya sifatida shakllangan. Ularning fan olamida paydo bo‘lish tarixi faylasuf olim Aristotel ta’limotiga borib taqaladi. Modallik termini Aristotel qarashlari asosida ilmiy hayotga olib kirildi. Bu hodisa haqidagi qarashlarning dastlabki manbalari Aristotel ta’limotida uchraydi. Aristotel o‘z ta’limotiga ko‘ra, borliqni ikki turga bo‘ladi: voqelikka asoslangan borliq va imkoniyatga asoslangan borliq. Olimning fikricha, dunyo imkoniyatdan voqelik tomon harakatlanadi. Yuqorida sanab o‘tilgan uch kategoriya - imkoniyat, voqelik va zaruriyat o‘zaro aloqaga kirishganda esa, modallik yuzaga keladi.

Tilshunoslikda modallik haqidagi ilk g‘oyalar grammatik sathda shakllangan bo‘lib, u bir jihatdan, morfologiyada modal so‘z va modal so‘z vazifasidagi birliklar sifatida o‘rganildi, ikkinchi tomonдан esa, ular sintaksisda kirish bo‘laklar maqomida tadqiq etildi. Aslida esa modallik kategoriyasi gap, matn strukturasiga taalluqli hodisa sanalib, u tilning turli vositalari orqali ifodalanishi mumkin. Modallik tushunchasini so‘zlovchining turli ifoda shakllari orqali voqelikka yoki borliqqa munosabati, deb tushunish mumkin. Modallik kategoriyasini fanga olib kirgan faylasuf olim Aristotel uning uch turini farqlaydi: a) “Shartli (bilateral) modallik: amalga oshish imkoniyati bo‘lgan, lekin har doim ham amalga oshmaydigan ishlar holatini aks ettiradi; b) shartli bo‘limgan (unilateral) modallik: ishlarning real holatini aks ettiradi; v) yuqoridagi ikki turni birlashtiruvchi umumiyl modallik turi.” Aristotel tomonidan farqlangan modallik turlari zamonaviy lingvistik nazariyalarda real va irreal modallik nomi bilan yuritiladi.

Yirik tilshunos olim V.V.Vinogradov “Lingvoentsiklopedik lug‘at”da modallikning “turli til sistemalarida turli shakllarda ifodalanishi ... Yevropa til sistemasida modallik nutq mazmunini to‘liq qamrab olishi” ni ta’kidlaydi. Hodisaga berilgan izohda modallik kategoriyasiga keng tushuncha sifatida qarash kerakligi ko‘rsatiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Modallik hodisasiga nisbatan qo‘llanilayotgan kategoriallik terminida paradigmatic va sintagmatik xususiyatlar mavjud bo‘lib, bu uning til birligi ekanligini ko‘rsatadi. Demak, barcha tillarda asosiy kategorial birliklar modallik sirasiga kirishi e’tirof etilgan. Xususan, o‘zbek va nemis tillarida predikativ struktura gapning grammatik asosi sanaladi. Biroq modallik kategoriyasiga faqat shu ma’noda, ya’ni bir tomonlama qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki modallik va uning ifodalanishi faqat sintaktik sath doirasidagina amal qilib qolmasdan, tilning barcha sath birliklari orqali amalga oshadi. Bunda tilning fonetik, leksik, sintaktik vositalari birday xarakterli sanaladi. Bu vositalar matn tarkibida turli ko‘rinishda namoyon bo‘lib, asosan, o‘ziga xos uslubiy-semantik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Modallik tushunchasi talqiniga bag‘ishlangan juda ko‘p tadqiqotlar mavjud va qiziq jihat shundaki, tadqiqotlar fanlararo federativ xarakterga ega. Chunki bu tushuncha til, mantiq va falsafa sohalariga tegishli bo‘lib, tadqiqotlarda unga turlicha yondashilgan. Ammo bu tadqiqotlar yo‘nalish va mazmunning turli-tumanligi bilan o‘zar farqlanadi. Albatta, bir tadqiqot ob’ektiga turli nuqtai nazardan yondashuv u haqida turlicha qarashlar va talqinlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Modallik haqidagi qarashlarda ham buni kuzatish mumkin. Ayniqsa, bunday har xilliklar modallik kategoriyasi tarkibiga kiruvchi masalalarni belgilash bilan bog‘liq masalalarda yana-da yaqqol ko‘zga tashlanadi. Modallik kategoriyasi paradigmaida birinchi o‘rinda gap, matn kabi sintaktik birliklarga xos qoidalar ustuvorlik kasb etadi. Bu o‘rinda sintaktik birliklarga xos kommunikativlik belgisi katta sintaksis doirasiga taalluqliligi bilan xarakterlidir. Ya’ni, so‘z birikmalarida so‘zlovchining kommunikativ maqsadi ifodalanmaydi, ularda nominativlik funktsiyasi ustuvorlik qiladi, shu sababli bu birliklarda kommunikativ-pragmatik jihatlar ko‘rsatilmaydi. Eng muhimi, ularda hukm mavjud emas.

Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarida hukm mavjud bo‘lib, gapning barcha tiplarida bu jihat to‘liq namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham so‘zlovchining munosabatini o‘z strukturasiga qamrab oluvchi modallik, bir jihatdan, gapga xos sintaktik maqom(kesimlik)ni belgilash uchun xizmat qiladi. Boshqa tomondan esa har qanday gap o‘z semantik strukturasida axborotning kompleks strukturasini belgilaydi. Gapga xos bu funksional xususiyatlar modallik kategoriyasi sifatida e’tirof etiladi. Shuning uchun ham har qanday fikr ifodalangan gapning semantik strukturasida gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlariga xos ”tasdiq, so‘roq va undov”, borliqda ro‘y berayotgan voqealarning tasdiq yoki inkor etilishi, ob’ektiv olamda sodir bo‘layotgan hodisalarning real yoki noreal ekanligi, so‘zlovchi tomonidan aytilayotgan fikrlarga munosabatning modal vositalar orqali ifodalanishi kabi masalalar modallik kategoriyasi mazmunini tashkil qiladi. Demak, modallik kategoriyasi tushunchasi ostida jumlaning kommunikativ maqsadi bilan bog‘liq tarzda ifodalanayotgan fikrning borliqqa munosabatini ko‘rsatuvchi aniqlik va noaniqlik, shubha, guman, obyektivlik, rostlik, yolg‘onlik, to‘g‘rilik, noto‘g‘rilik kabi munosabat mazmuni qamrab olinadi.

Modallik paradigmasi umumiyligi va xususiylik belgilari bilan farqlanadi. Shuning uchun ham u modallik kategoriysi, deb nomlanadi. Bu hodisaning umumiyligi jihatiga jumla mazmunining ob'ektiv olamga bo'lgan munosabati xabar shakliga egaligi bilan belgilanadi. Xabardagi so'zlovchiga taalluqli bo'lgan subyektiv munosabat esa uning xususiyligini ifoda etadi. Ikkalasida ham axborot berish xususiyati aks etadi. Lekin axborotlar yuqorida ko'rsatilgan jihatlarga ko'ra, o'zaro zidlanadi. Bu zidlanish modallik paradigmasing mohiyatini tashkil etadi. Tilshunoslikda bunday zidlanish yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, ob'ektiv va sub'ektiv turlarga bo'linadi. "Obyektiv modallik gapga xos predikativ strukturani shakllantirish bilan bog'liq hodisa sifatida e'tirof etiladi".

V.V.Vinogradovning modallik haqidagi qarashlari esa bu masalaga nafaqat grammatic xususiyatlardan asosida, balki matnga xos kommunikativ-sintaktik va sintaktik-pragmatik hodisalar sifatida ham baho berish kerakligini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqqan holda, "modallik termini ma'no hajmi, grammatic xususiyatlari bir xil bo'limgan, keng ko'lamdagi hodisalarini belgilash uchun" qo'llaniladi, degan xulosaga kelish va uni ilmiy isbotlash o'rinni bo'ladi. Biz ushbu tadqiqotimizda modallik kategoriyasini V.V.Vinogradovning qarashlari asosida pragmalingvistik nuqtai nazardan tadqiq etish hamda uning matndagi uslubiy funksional xususiyatlarini ko'rsatishni maqsad qilib oldik.

Sh.Balli o'zining "Umumiy tilshunoslik va frantsuz tili masalalari" asarida "modallik xuddi fikr kabi so'zlovchi sub'ektning obyektiv olam haqidagi tasavvurlari natijasida shakllanishi" ni e'tirof etadi. Buni shunday izohlash mumkin: inson tafakkurida fikrning shakllanishi uning obyektiv olam haqidagi tasavvurlari bilan bog'liq bo'lgani kabi modallik ham kishilar ongida shakllangan tasavvur asosida yuzaga keladi. Inson ongida yoki tafakkurida borliqdagi narsa hodisa, predmet haqidagi tasavvur bo'lmasa, uning ifodasi hisoblangan modallik ham tilda aks etmaydi. Shuning uchun ham gap semantik strukturasida paydo bo'ladigan propozitsiya va modallik avvalo inson tasavvurida fikr va modallik modellari sifatida yuzaga keladi. Hodisalarning bunday munosabatlari tilshunoslikda maxsus yo'naliш — mentalingvistika tarkibida o'rganiladi. Bunda til va tafakkur masalalari tadqiqot obyekti sifatida e'tirof etiladi. Til va tafakkur masalalari negizida keyinchalik kognitiv stilistika yo'naliш shakllanadi. Kognitiv stilistikada ilgari surish nazariyasi kontseptual integrallashuv nazariyasi, kognitiv metaforalar nazariyasi, axborotni tashkillashtirishning kognitiv tamoyillari nazariyasi, prototiplar nazariyasi, blending nazariyasi, kognitiv deyksis nazariyasi", "modal deyksis" kabi yo'naliшlar farqlanadi. Ko'rindaniki, tilning modal strukturasi uslubshunoslik va pragmalingvistika muammolari bilan aloqador masalalar sifatida namoyon bo'ladi.

Modallik har bir gap tarkibida va nutq parchasida mavjud bo'lib, u jumlaning obyektiv olamga, borliqqa bo'lgan munosabatini aks ettiradi, shuning uchun ham u "gapning asosiy mazmuniga bo'yoq beruvchi qism sanaladi". Masalan, Akmal keldi jumlasida obyektiv borliqda yuz bergen hodisa, holat haqida xabar mazmuni ifodalangan bo'lib, uning grammatic strukturasi o'zbek tili qoidalariga ko'ra to'g'ri shakllangan.

Agar ayni jumlani modallik nuqtai nazaridan tahlil etib ko'radigan bo'lsak, uning mazmun mundarijasida nutq vaziyatiga mos ravishda xursandlik, zavq-shavq, xavotir yoki xafalik holatlari ifodasi sifatlari hosil bo'ladi. Barcha tadqiqotlarda bu yo'naliшdagi tasdiq, guman, shubha, zaruriyat yoki imkoniyat kabi kategoriyalarni modallikning eng asosiy komponentlari

sifatida e'tirof etiladi. Bular har qanday gapda ob'ektiv munosabatni ifodalashga xizmat qiladi. Xususan, chek tilshunosi Frantisek Kopechniy o'tgan asrning 60-yillarda voqelik, imkoniyat va zaruriyat kategoriyalari modallikni ifodalovchi asosiy kategoriylar ekanligini aytadi. Olim bu haqidagi qarashlarida gapda modal funktsiyani bajaruvchi har qanday so'z imkoniyatni yoki zaruriyatni ifodalashini ta'kidlaydi. Shuningdek, tilshunoslik fanida modal ifoda shakllari, modallik turlarining o'zaro o'xshash va farqli jihatlari, modallikning ehtimollik, ishonchlilik va zaruriyat kabi ko'rinishlari va ularning o'zaro bog'liqlik jihatlari yuzasidan ayrim nazariy fikrlar bildirib o'tilgan. Tilda uchraydigan har qanday gap ham modal ma'noga ega emas deb hisoblaydi. Bu jihat, ayniqsa, reallikni tasdiqlovchi gaplarda yana-da yaqqolroq sezilishini ta'kidlar ekan, gapda modallik o'z ifodasini topishi uchun unda shubha, gumon, ehtimollik ma'nolari aks etishi lozimligini ta'kidlaydi. Tadqiqotchi Z.Yigitaliyeva nemis tilida bunday ma'nolar modal fe'llar yordamida ifodalanishini aytadi. Bunday modal fe'llar nemis tilida 6 ta bo'lib, ular gapdagagi asosiy fe'lga kerak, zarur, mumkin, imkoniyatga, xohishga ega bo'lmoq kabi qo'shimcha ma'nolar berishini ta'kidlaydi[4] .

XULOSA

Yuqoridagi misollar asosida shuni alohida ta'kidlash mumkinki, so'zlovchi subyektning obyektiv olam, insonlar bilan shubha, gumon, ehtimollik, umid, ishonch va shu kabi emotsiyonal bo'yoq hamda hissiy munosabatga ega bo'lgan holda muomalaga kirishishi kommunikatsiya predmetiga modal ma'no beradi. Demak, so'zlovchining o'zi berayotgan ma'lumotiga ishonchi, uni faktlar bilan tasdiqlashi jumlaning modallashuv hodisasidan holi ekanligini bildiradi. Biroq mavjud adabiyotlarda buni fikrning qat'iyligi asosida modallik turlaridan biri sifatida belgilashadi. Aksincha, inson o'z nutqida biror-bir holat yoki hodisaning voqelikka to'g'ri kelmasligini e'tirof etishi yoki u haqda gumon, shubhaga borishi gapning modal ma'noga ega bo'lishiga sabab bo'ladi. P.Ayzenberg modallik atamasini gapdagagi axborotga qo'shimcha subyektiv ma'no beruvchi kategoriya sifatida talqin qilganida, aslida modusni nazarda tutgan edi. Bundan kelib chiqadiki, ayrim ilmiy adabiyotlarda modallik atamasi modus ma'nosida qo'llanilishi ham kuzatiladi.

Adabiyotlar:

- 1.Фалсафа (этика, эстетика, мантиқ): Маърузалар курси/Д.А.Юсубов, Х.Б. Сайтходжаев, Д.Х.Разаков ва бошк.; Масъул муҳаррир ф.ф.д., проф. ХФ.Хайдаров. –Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2017. 437-бет.
2. Виноградов В.В. О категории модальности и модальных словах в русском языке / В.В. Виноградов. – М. : Просвещение, 1950; Камилджанова Р.А. Модальные слова в современном узбекском языке. Автореф. дис.... канд.филол.наук. Ташкент, 1975; Золотова Г.А. Модальность в системе предикативных категорий. Otázky slovanské syntaxe; Нурмонов А. Танланган асарлар. З жилдлик. — Т. : Академнашр, 2012. I жилд; Йигиталиева З. Бадий матнда модуснинг ифодаланиши: Филол. фанл. бўйича фалсафа доктори. дисс. – Фарғона, 2021. 175 бет.

3. Ҳожалиев И. Матншунослик курсида тасвир нутқини ўргатиш [Матн]: услубий қўлланма / И.Ҳожалиев; масъул муҳаррир М.Мамажонов; ЎзР ОЎМТВ, Фарғона давлат ун-ти, : – Фарғона, 2019. – 88.
4. Йигиталиева З. Бадиий матнда модуснинг ифодаланиши: Филол. фанл. бўйича фалсафа доктори. дисс. – Фарғона, 2021. 25-bet.
5. Алимжонова, М. (2022). ФУНКЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ КАЧЕСТВ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ У СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(2), 124-129.
6. Mamasoliyev, R. (2020). Modern Innovative Directions Of Pedagogical Education Development. *Теория и практика современной науки*, (6), 16-18.
7. Мамасолиев, Р. А. (2021). Communicative And Pragmatic Features Of The Teacher Concept In German And Uzbek Languages. *Международный Журнал Языка, Образования, Перевода*, 4(2).
8. Собиров, Н. С., & Ибрагимов, В. Ю. (2021). Военнопленные Австро-Венгерской И Германской Армии В Исфайрам-Сайе. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, 2(11), 73-77.
9. Ибрагимов, В. (2022). ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИК ВА ТОЛЕРАНТЛИКНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ. *Research Focus*, 1(4), 351-354.
10. Vaxobjon, I. (2022). BARKAMOL AVLODNI MAFKURAVIY TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING MUHIM JIATLARI. *Research Focus*, 1(4), 328-332.
11. Ibragimov, V. (2022). METHODOLOGY OF STUDYING FOREIGN LANGUAGE LESSONS BY THE METHOD OF EXTRACURRICULAR PROJECT WORK ADVANTAGES. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(06), 60-65.
12. Ибрагимова, З. (2022). ПОЛИСЕМАНТИК ЛЕКСЕМАЛАР. *O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(13), 616-619.
13. Zumrad, I., & Feruza, A. (2022). LINGUISTICS, ITS MODERN TYPES. *Journal of Modern Educational Achievements*, 3, 43-47.
14. Yusupjanova, F. (2021). EFFICIENCY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES. *Интернаука*, (14-3), 51-52.
15. Yusupjanova, F. (2021). EFFICIENCY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES. *Интернаука*, (14-3), 51-52.
16. Feruza, N. (2023). Characteristics of the Lessons of the Native Language. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(3), 32-36.
17. Набижонова, Ф. (2022). ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЁТ ТАЪЛИМИНИНГ ТАРИХИ ВА ТАРАҚҚИЁТ ЙЎЛЛАРИ. *Мировая наука*, (10 (67)), 38-41.
18. Каримова, Г. Й. (2021). MORALITY AS AN IDEOLOGICAL METHOD OF FIGHTING SPIRITUAL THREATS. *Экономика и социум*, (6-1), 707-710.
19. Karimova, G. (2022). CORRUPTION: ITS HISTORICAL ROOTS AND WAYS TO COMBAT IT. *Research Focus*, 1(4), 267-272.
20. Каримова, Г. (2022). МАҶНАВИЯТ ВА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ. *Экономика и социум*, (3-2 (94)), 612-615.
21. Zumratkhon, I. (2022). INNOVATIVE ASPECTS OF TEACHING SPECIALTY SUBJECTS IN THE SYSTEM OF HIGHER EDUCATION. *Research Focus*, 1(4), 341-345.